

**O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FE'L YASOVCHI –LA  
QO'SHIMCHASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

*Ro'ziqulov Shohruh Ilhom o'g'li*

*Guliston davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi*

[shohruhroziqulovv@gmail.com](mailto:shohruhroziqulovv@gmail.com)

*Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi*

*Anorboyeva Munisa G'ulomjon qizi*

**Annotation.** Tilshunoslik fanining o'rganilishi sistematik ravishda amalgam shirilmoqda, jumladan, bo'limlarga ajratish, turkumlarni aniqlash, kategoriyalarga bo'lish, guruhlarga ajratish va nihoyat oppozitsiyada turgan holatlarni baholash kabilar. Demak, so'z yasalishi ham bundan mustasno emas, chunki so'z asosi bilan yasovchi o'rtasidagi munosabat bu jarayonni asoslab beradi. Darhaqiqat, tilshunoslik fani tarixidan to bugungi kungacha bo'lgan davrda so'z yasalishi bo'yicha turlichay qarashlar, fikrlar bildirilib kelinmoqda. Jumladan, turkiy tillarga oid fe'l yasalishi masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada eng faol fe'l yasovchi –la qo'shimchasingning o'ziga xos xususiyatlari va taniqli tilshunos olimlarning fe'l yasovchi –la qo'shimchasi bilan bog'liq munozaralari masalaga oydinlik kiritishga harakat qilganligi va o'zining ilmiy qarashlari bilan fe'l yasalishiga doir xulosalar berganligiga guvoh bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** affiks, mustaqil so'zlar, taqlidiy so'zlar, so'z yasalishi, shakl yasalishi.

**Kirish.** O'zbek tilidagi yasama fe'llarning ko'pchiligi ikki asosiy usul: affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasalgan fe'llardir. O'zbek tilida fe'l yasovchi qo'shimchalar juda ham ko'p emas. Shulardan eng faol fe'l yasovchi qo'shimchalardan biri -la affiksidir. Bu affiks fe'l yasovchilar ichida eng mahsuldor bo'lib fe'ldan boshqa barcha turkumga oid so'zlardan fe'l yasay oladi.

Uning yordamida otlardan yasalgan fe'llar asosan quyidagi umumiy ma'nolarni bildiradi: a) o'zak-negizdan anglashilgan narsa-predmet bilan ta'minlash, shu predmetga ega holatli qilish ma'nosini bildiradi: ***o'g'itla, moyla, betonla;*** b) asbob-qurol bildiruvchi otlarga qo'shilganda, shu asbob bilan bajariladigan ishni qilish ma'nosini bildiradi: randala, qaychila, arrala, egovla kabi; c) o'zak-negizdan anglashilgan narsa-predmetni yuzaga keltirish (paydo qilish) ma'nosini bildiradi: urug'la, shonala, mog'orla, bolala kabi[1].

-la affiksi yuqoridagi so'zlarga qo'shilganda, so'zning asosidagi birikuvchanlik xususiyati ham o'zgaradi.

Sifat va ravishlardan -la affiksi yordamida yasalgan fe'llarda o'zak-negizdan anglashilgan tusga, holatga ega qilish, shu holatni olish ifodalanadi: tikla, tekisla, silliqla, sekinla, tezla, tozala, yaxshila kabi.

Undovlardan -la affiksi bilan yasalgan fe'llarda shu undovga xos his-hayajon, buyruq-xitob, murojaat kabilarni bajarish ma'nosini ifodalanadi. Aniqroq qilib aytganda, bunday fe'llarning ma'nosini, asosan, undov so'zga xos ma'no bilan «demoq» fe'lining ma'nosini yig'indisiga mos keladi: dodlamoq (dod demoq), voyvoylamoq (voy-voy demoq), chuhlamoq (chuh demoq), hihilamoq (hi-hi demoq) va b. Demak, -la affiksi ma'lum darajada «demoq» fe'li bilan ma'nodosh hisoblanadi.

-la affiksi yordamida undovlardan yasalgan fe'llarda, odatda, undov bildiradigan his-hayajon, buyruq-istik kabilarning birdan ortiqligi ifodalanadi. Shunga mos holda, ko'pincha, undov so'z takror holda qo'llanadi: kishtlamoq (kisht-kishtlamoq). Agar undov so'z bildiradigan his-hayajon, buyruq-xitob kabilar takror holda bo'lmasa, odatda -la affiksi emas, balki «demoq» fe'li qo'llanadi: chuh dedi, voy dedi kabi.


-la affiksi «demoq» fe'liga xos ma'noga va takroriylikni bildirish xususiyatiga egaligidan, biror so'z yoki gapni birdan ortiq bajarilishini (takroriy ijrosini) ifodalash uchun ham qo'llanadi. Bu hodisa, ayniqsa, og'zaki nutqda ko'p uchraydi: ketamanlamoq, onamlamoq (onamlab yig'lamoq) kabi.

Taqlidiy so'zlardan -la affiksi yordamida yasalgan fe'llarda taqlidiy so'z bildirgan tovush yoki biror holatning yuz berishi ifodalanadi, ya'ni bunday fe'llarning ma'nosi, asosan, taqlidiy so'z va «etmoq» so'zining ma'nolari yig'indisiga to'g'ri keladi; shitirlamoq (shitir etmoq), gumburlamoq (gumbur etmoq), lapanglamoq (lapang-lapang etmoq) va b. Bunday fe'llarda ham, odatda, taqlidiy so'zdan anglashilgan tovush, obraz va sh. k. birdan ortiq bo'ladi[1].

Fe'lning o'ziga qo'shilganda, harakatning takrorlanishl, uzoq davom etishi ma'nolarini anglatadi: savamoq—savalamoq, oshamoq—oshalamoq, qashimoq—qashilamoq kabi. Bu ma'no bir necha xil yo'l bilan ifodalanishi mumkin: a) o'zakka **-la** affiksini to'g'rIdan-to'g'ri qo'shish bilan (quv—quvla kabi.); b) fe'lidan avval ish oti yasab, so'ng **-la** affiksi keltirish bilan (tort—tortqila, o'r—o'rmala, tep—tepkila kabi); d) **-la** affiksini bundan boshqa turdag'i yasama otlarga qo'shish yo'li bilan (tom—tomchila kabi); e) o'sha fe'lni takrorlash bilan (so'rab—so'rab—bir necha marta so'rab, so'roqlab kabi); f) fe'lga aniqlovchi keltirish bilan (bir necha marta so'rab kabi)[2].

Shu o'rinda **-la** affiksi faqat so'z yasovchi qo'shimcha sifatida emas, balki shakl yasovchi qo'shimcha sifatida ham qatnashib kelishi mumkin ekan. Ushbu fe'l yasovchi qo'shimcha fe'lga qo'shilganda asosdagi valentlikka katta ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Masalan, qolmoq fe'lining semantik valentliklari – bu fe'l bevosita sintaktik aloqaga kirishgan, uning semantik valentliklarini namoyon qiluvchi so'z va so'z formalaridir: Men o'z yurtimda Vatanimni sevganim uchun, xalqimga astoydil mehnat qilish uchun qoldim.



Ko'rinaridiki, qolmoq valentlik substansial xususiyatiga ko'ra agens, o'rin, sabab va maqsad kabi valentliklarga ega bo'lib, ularning ifodalovchilari

(realizatorlari) bilan semantik-sintaktik aloqaga kirishgan. Ushbu gapda agens, o'rin, sabab va maqsad kabi fe'l semantikasining mantiqiy bo'laklari – semantik qatnashuvchilar (aktantlar) fe'l dagi qolish xabarining – fe'l denotativ ma'nosining namoyon bo'lishi uchun xizmat qilmoqda. Qolmoq fe'l bilan sintaktik aloqaga kirishib, predikativ va nominativ birlikni hosil qilgan konstruksiyalarda – nominativ birliklarda tobe komponentning hokim komponentga moslashishi, muayyan grammatik shaklga kirishi yuz berganki, bu bevosita fe'l hokim komponentning talabiga, shunday "tortish kuchi" ga egaligiga, tobe komponentlarning esa "tortilishi" xususiyatiga ega bo'lish qobiliyatiga ko'ra sodir bo'lgan.

Xuddi shunday ko'rinishda yasama fe'llar ham valentlik xususiyatiga ega.

So'z semantik valentligining muayyan ko'rinishi fe'l valentligi hisoblanadi. Chunki valentlik nazariyasi dastavval fe'lning gap konstruksiyasida qo'llanishining mahsuli sifatida fe'lning boshqaruvi xususiyatlarini o'rganish jarayonida shakllanadi. Chunki fe'l akad. V.V.Vinogradov ta'kidlaganidek, "...boshqa barcha so'z turkumi kategoriyalariga nisbatan eng konstruktiv turkumdir. Fe'lli konstruksiyalar otli so'z birikmalari va gaplarga faol ta'sir qilish kuchiga egaligi bilan xarakterlnadi". Demak, fe'lning eng muhim xususiyati shundaki, u gapning semantik strukturasida markaziy o'rinni egallaydi. Shunga ko'ra L.Tener tobelik grammatikasida gapni tuzilish jihatidan tahlil qilish jarayonida gapning tuzilish asosi sifatida fe'lga tayanadi[3].

### **Xulosa**

So'z semantik valentligining muayyan ko'rinishi fe'l valentligidir. Fe'l valentligining muhim jihat shundaki, fe'l gapning tuzilishini belgilaydi. Fe'l gapda valentlik tashuvchiligi bilan, boshqa so'zlarni o'ziga biriktira olish qobiliyatiga ega eng asosiy konstruktiv birlik ekanligi bilan ajralib turadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ҳожиев А. Феъл. Тошкент: Узбекистон ССР «Фан» нашриёти, 1973.

5-7 6.

2. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. Тошкент: O‘qituvchi, 2007. 146-148 б.
3. Rasulov R. Valentlik nazariyasi. Academic Research in Educational Sciences, December 2022. 446 b.
4. Doniyorovich, O. R. A., Xolbo‘Tayevna, P. I., & O‘G, R. Z. S. I. (2025). O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSEMANING TIL BIRLIGI SIFATIDA O ‘RGANLISHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 205-208.
5. Ro‘Ziqulov, S., Pardayeva, I., & Alisher, O. R. (2025). FE'LDA VALENTLIK. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4), 209-211.
6. Shohruh ilhom o‘g, R. Z. (2024, May). O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO ‘Z TURKUMLARINING O ‘RGANILISHI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS* (Vol. 1, No. 5, pp. 36-46).